FARG‘ONA VILOYATI QUVASOY SHAHAR HOKIMI
Q A R O R I

2022 - yil 6 - aprel 105-11-167-Q/22 Quvasoy shahar hokimligi

Quvasoy shahar hokimligining uy-joy fondi hisoblangan ko‘p qavatli turar joy uylardagi xonadonni fuqaroga xususiylashtirib berish to‘g‘risida

Fuqaro **OXUNOVA TURSUNOY SHIRALIYEVNA**ning o‘zi yashab kelayotgan ko‘p qavatli uylardagi xonadonni xususiylashtirib berish haqidagi murojaatiga ko‘ra, shahar hokimining 2022-yil 29-yanvardagi 30-11-167-Q/22-sonli qarori bilan shahar hokimligi huzuridagi tashkil etilgan “Davlat uy-joy fondini hisobga olish, taqsimlash va xususiylashtirish masalalari bo‘yicha doimiy harakatdagi komissiyasi”ning 2022-yil 1-mart kungi 12-sonli yig‘ilish qarori va to‘plangan hujjatlar bilan tanishib chiqib, O‘zbekiston Respublikasining 1993-yil 7-maydagi “Davlat uy-joy fondini xususiylashtirish to‘g‘risida”gi Qonuniga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993-yil 1-martdagi “O‘zbekiston Respublikasida davlat uy-joy fondini xususiylashtirishni davom ettirish to‘g‘risida”gi 114-sonli, 2016-yil 7-iyundagi O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga davlat uy-joy fondini xususiylashtirish tartibini takomillashtirishga yo‘naltirilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi 190-sonli qarorlari hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6,25-moddasiga binoan;

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Shahar hokimining 2022 yil 29 yanvardagi 30-11-167-Q/22-sonli qarori bilan shahar hokimligi huzuridagi tashkil etilgan “Davlat uy-joy fondini hisobga olish, taqsimlash va xususiylashtirish masalalari bo‘yicha doimiy harakatdagi komissiyasi”ning 2022-yil 1-mart kungi 12-sonli yig‘ilish qarori asos uchun qabul qilinsin.

2. Fuqaro **OXUNOVA TURSUNOY SHIRALIYEVNA**ning o‘zi yashab kelayotgan ko‘p qavatli uylardagi xonadonini xususiylashtirib berish haqidagi murojaati qanoatlantirilsin.

3. “VODIY STANDART BAHO” mas’uliyati cheklangan jamiyatining 2019-yil 17-sentabrdagi “X.Olimjon” MFY hududidagi Sarbozor ko‘chasi 13-uyda joylashgan 19-xonadonni baholash haqidagi 738-sonli hisoboti asos uchun qabul qilinsin.

4. Quvasoy shahar hokimining 2013-yil 26-sentyabdagi 394k-sonli qarori asosida, 4-sonli xonadondan foydalanish huquqini beruvchi hujjat (order) bilan yashab kelayotgan, shaharning “H.Olimjon” MFY hududidagi Sarbozor ko‘chasidagi 2 xonali, 47,99 m^2 umumiy foydalanish maydonidan, 31,36 m^2 yashash maydonidan iborat bo‘lgan, 6 847 881 (olti million sakkiz yuz qirq yetti ming sakkiz yuz sakson bir) so‘mga baholangan 13-uyning 19-xonadonini **OXUNOVA TURSUNOY SHIRALIYEVNA** nomiga xususiylashtirib berilsin.

5. Shahar hokimligi qoshidagi “Xo‘jalik hisobidagi uy-joylarni ro‘yxatga olish, almashtirish va taqsimlash” bo‘limi (A.Abdullaev)ga, fuqaro **OXUNOVA TURSUNOY SHIRALIYEVNA**ni yashab kelayotgan xonadonini xususiylashtirilishini rasmiylashtirish va hisob-kitob ishlarini amalga oshirish vazifasi yuklatilsin.

6. Kadastr agentligining Davlat kadastrlar palatasi shahar filiali rahbariga, yuqorida xususiylashtirilgan xonadonni tegishli tartibda kadastr hujjatlarini rasmiylashtirish vazifasi topshirilsin.

7. Ushbu qarorni bajarilishini nazorat qilish shahar hokimining o‘rinbosari Sh.Tursunboyev zimmasiga yuklatilsin.

Shahar hokimi **Z.K.To'rakulov**